

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Viloyatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda, milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 140,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 43,5 mln. AQSh dollariga yoki 45,0 % ga ko'paygan.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

	2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
	96,6	140,1	145,0 %	x
Eksport	37,1	49,3	133,1 %	100,0
tovarlar	34,2	47,2	138,0	95,7
xizmatlar	2,9	2,1	72,4	4,3
Import	59,5	90,7	152,5 %	100,0
tovarlar	59,5	90,7	152,5	100,0
Saldo	-22,4	-41,4	x	x

Eksport hajmi 49,3 mln. AQSh dollarini (33,1 % ga ko'paygan) bo'lib, import hajmi 90,7 mln. AQSh dollarini (52,5 % ga ko'paygan) tashkil etdi. Hisobot davrida – 41,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinnarda TIF TN) bilan birlashtirilgan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinnarda – XSST) ishlataladi. Bu o'z navbatida, tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



**XORAZM VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar-mart mln. AQSh dollari, ulushi % da)**



Viloyatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha jahoning 58 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (26,5 %), Rossiya Federatsiyasi (12,5 %), Turkiya (9,6 %), Qirg'iz Respublikasi (7,1 %), Koreya Respublikasi (5,4 %), Qozog'iston (4,1 %) va Turkmaniston (2,7 %) davlatlariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatimizda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



**XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI**
(yanvar-mart mln. AQSh dollarri)


Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Xitoy Xalq Respublikasi	23,4	16,2	37,1
Eksport	0,9	3,0	6,9
Import	22,5	13,3	30,2
Saldo	-21,6	-10,3	-23,3
Rossiya Federatsiyasi	17,6	31,9	17,5
Eksport	7,3	8,9	10,6
Import	10,3	23,0	6,9
Saldo	-3,0	-14,1	3,7
Turkiya	7,3	10,8	13,5
Eksport	1,7	5,7	7,2
Import	5,6	5,1	6,3
Saldo	- 3,9	0,6	0,9
Qirg'iz Respublikasi	12,2	9,3	10,0
Eksport	12,2	9,2	10,0

Davlat nomi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Import	0,0	0,1	0,0
Saldo	12,2	9,1	10,0
Koreya Respublikasi	3,9	0,1	7,6
Eksport	0,0	0,1	0,3
Import	3,9	0,0	7,3
Saldo	-3,9	0,1	- 7,0
Qozog'iston	6,2	2,9	5,7
Eksport	3,6	2,3	3,9
Import	2,6	0,6	1,8
Saldo	1,0	1,7	2,1
Turkmaniston	3,3	2,5	3,8
Eksport	2,2	1,7	2,7
Import	1,1	0,8	1,2
Saldo	1,1	0,9	1,5
Germaniya	1,0	1,1	2,8
Eksport	0,0	0,1	0,2
Import	1,0	1,0	2,6
Saldo	- 1,0	- 0,9	-2,4
Fransiya	0,2	0,1	1,8
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	0,2	0,1	1,8
Saldo	- 0,2	-0,1	-1,8
Eron	3,9	1,9	1,5
Eksport	2,6	1,2	0,7
Import	1,3	0,7	0,8
Saldo	1,3	0,5	- 0,1



XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH
MAMLAKLATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-mart, mln. AQSh dollar, ulushi, % da)

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 29,4 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar-mart oylarida 2020- yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga oshgan va jami TSA dagi ulushi 70,6 % ni tashkil etdi.


XORAZM VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-mart)

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatning eksportyori soni 47 tani tashkil etib, ular tomonidan 49,3 mln. AQSh dollarini (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 33,1 % ga ko‘paygan) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 95,7 % ni tashkil etib, ular asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (51,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (29,2 %), turli xil tayyor buyumlar (8,4 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 29,2 %
- Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari – 6,0 %
- Mineral yoqilg‘i, yog`lash moylari va shunga o‘xshash materiallar – 0,1 %
- Hayvon va o`simliklar moylari (yog`lari), yog`lar va mumlar – 0,1 %

- Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar – 0,3 %
- Sanoat tovarlari – 51,3 %
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 0,4 %
- Turli xil tayyor buyumlar – 8,4 %
- Xizmatlar – 4,3 %



**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart)**

XSST tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollarri	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami eksport	49,3	133,1	100,0	30,0	127,3	100,0	19,4	143,4	100,0
shu jumladan:									
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar	14,5	2,5 m.	29,1	11,2	3,8 m.	37,3	3,3	192,4	16,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, Yoqilg'idan tashqari	2,9	46,4	6,0	0,6	19,0	2,0	2,3	73,6	12,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,0	-	0,1	0,0	-	0,1	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	49,6	0,1	0,1	-	0,2	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,1	138,4	0,3	0,1	138,4	0,5	-	-	-
Sanoat tovarlari	25,3	143,6	51,3	12,1	122,6	40,3	13,2	170,4	68,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	0,2	2,4 m.	0,4	0,2	2,9 m.	0,7	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	4,1	98,4	8,4	4,0	96,8	13,5	0,1	-	0,3
Xizmatlar	2,1	74,5	4,3	1,6	82,8	5,4	0,5	56,6	2,7

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlarga to'g'ri kelmoqda.

2021- yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 - yilning yanvar-martiga nisbatan, nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari), mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar, kimyoviy vositalar, mashinalar va transport asbob- uskunalari hamda xizmatlar guruhlarida pasayish kuzatildi.



**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI
(yanvar-mart, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
	Jami	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	59,9	15,3	29,1
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,9	17,1	6,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	1,0	-	0,1
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,4	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,5	0,3	0,3
Sanoat tovarlari	23,4	47,5	51,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,0	0,2	0,4
Turli xil tayyor buyumlar	0,3	11,3	8,4
Xizmatlar	9,0	7,8	4,3




**XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR
EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart)**

XSST bo`limi nomi	Mln. AQSh dollari	2020- yilning mos davriga nisbatiga % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	13,4	2,5 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,0	16,0
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalangan donlardan tashqari)	0,3	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,2	3,0 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	0,1	2,1 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	-	-
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg`idan tashqari		
To`qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1,9	59,8
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,1	134,6
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Yumshoq o'simlik moylarini ishlab chiqarishga yaroqli moyli va moyli urug'lari	0,5	5,8 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	-	-
Mineral yoqilg`i, yog`lash moyi va shunga o`xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Elektr toki	-	-
Neft va neft mahsulotlari va shunga o`xshash materiallar	0,0	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyo moddalari	-	-
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,0	48,5

O'g'itlar

Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari



Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar

0,1 97,7

Sanoat tovarlari

To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar

23,7 143,8

Rangli metallar

- -

Qog'oz massasi

0,6 4,1 m.

Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar

- -

Metalldan tayyorlangan buyumlar

- -

Mashinalar va transport asbob-uskunalarini

Avtomobillar

0,2 25,5 m.

Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyoj qismlari

0,0 78,7

Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va ularning detallari

0,0 13,4

Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalarini

0,0 74,9

Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalarini

- -

Turli xil tayyor buyumlar

Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari

3,5 98,8

Poyabzal

0,5 114,1

Har xil tayyor buyumlar

0,1 42,6

Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari

- -

Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar

0,0 99,7

Xizmatlar

Transport xizmatlari

0,1 75,6

Safarlar (turizm)


0,9 68,3

Boshqa biznes xizmatlari

0,2 116,9




**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR
EKSPORTI HAJMLARINING DINAMIKASI
(yanvar-mart, mln. AQSh dollari, ulushi % da)**



2021- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiyligi hajmining 21,6 %), Qirg'iz Respublikasi (20,2 %), Turkiya (14,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi (13,9 %), Qozog'iston (7,9 %), Turkmaniston (5,4 %) va Pokiston (2,1 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi umumiyligi ulushi 85,6 foizni tashkil etmoqda.



**XORAZM VILOYATINING EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-mart, % da)**



2021- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yildagi kabi tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi yetakchi mavqeini saqlab turibdi. Keyingi holatda Qirg'iz Respublikasi va XXR o'rinnegallagan.



**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-mart)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	8,9	10,6	119,6	3,3 m.	2	1
Qirg'iz Respublikasi	9,2	10,0	108,9	74,8	1	2
Turkiya	5,7	7,2	125,3	3,3 m.	3	3
Xitoy Xalq Respublikasi	3,0	6,9	2,3 m.	3,4 m.	4	4
Qozog'iston	2,3	3,9	168,6	64,4	5	5
Turkmaniston	1,7	2,7	156,8	76,7	6	6


Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari hamda nooziq-ovqat xomashyo (yoqilg'idan tashqari) kiradi.



**XORAZM VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT
TARKIBI**

XSST tarkibi	Rossiya		Qirg'iziston		Turkiya		XXR	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Jami eksport	8,9	10,6	9,2	10,0	5,7	7,2	3,0	6,9
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,7	0,8	0,2	5,0	0,2	0,2	0,1	0,3
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,0	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	0,0	0,0	2,9	0,3	1,6	0,9	0,2	0,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	-	0,0	-	-	-	0,0	-	-
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	-	0,0	0,0	-	-	-	-
Sanoat tovarlari	7,3	9,2	1,8	1,4	3,9	6,0	2,7	6,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	-	-	-	0,1	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,1	0,0	4,1	-	-	-	-
Xizmatlar	0,9	0,6	0,7	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0

Xizmatlar eksporti hajmi 2,1 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 4,3 % ni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 25,5 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (48,9 %), safarlar (turizm) (42,3 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (8,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart, ulushi % da)

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari eksportida 13,7 mln. dollar qiymatli yoki 22,2 ming tonnadan ziyod mahsulot eksport qilingan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 9,3 mln. AQSh dollariga teng 18,1 ming tonna sabzavot, shuningdek, 4,4 mln. AQSh dollari qiymatidagi 4,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 27,8 % ni tashkil etdi.



**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI
(2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollar)**



Meva va rezavorlar
4,1 ming tonna
4,4 mln. AQSh dollar



Sabzavotlar
18,1 ming tonna
9,3 mln. AQSh dollar



Uzum
1,4 ming tonna
1,5 mln. AQSh dollar



Yeryong`oq
0,3 ming tonna
0,4 mln. AQSh dollar



Qovun va tarvuz
0,1 ming tonna
0,2 mln. AQSh dollar



Qalampir
0,2 ming tonna
0,2 mln. AQSh dollar

Bugungi kunda viloyatimizda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'plangan tajribaga ham bog'liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo'jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishslashni va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (38,0 %), Qozog'iston (18,5 %), Turkmaniston (11,9 %) va Pokiston (6,7 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.


XORAZM VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-mart)

2021- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 90,7 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 52,5 % ga ko'paygan.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (35,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (35,2 %), turli xil tayyor buyumlar (12,7 %) hamda kimyoviy vositalar (5,8 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI BO'YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



- █ Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – 35,2 %
- █ Ichimliklar va tamaki – 0,0 %
- █ Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari – 5,8 %
- █ Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 0,9 %
- █ Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar – 0,1 %

- █ Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 5,8 %
- █ Sanoat tovarlari – 4,4 %
- █ Mashinalar va transport asbob-uskunalar – 35,2 %
- █ Turli xil tayyor buyumlar – 12,7 %

Tovar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-martida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,2 mln. AQSh dollariga ko'paygan va 90,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart)**

Tarkibi	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh dollari	o'tgan yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
Jami import	90,7	152,5	100,0	11,2	42,8	100,0	79,5	2,4 m.	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	31,9	142,7	35,2	3,0	20,4	26,5	28,9	3,7 m.	36,4
Ichimliklar va tamaki	0,0	195,7	0,0	0,0	195,7	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,2	67,0	5,7	4,1	71,6	37,1	1,1	53,5	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moyi va shunga o'xshash materiallar	0,8	6,3 m.	0,9	0,5	3,7 m.	4,1	0,3	-	0,4
Hayvon va o'simliklar moyi (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	3,0	0,1	0,1	3,0	0,5	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	5,3	2,2 m.	5,8	0,9	138,0	7,8	4,4	2,5 m.	5,6
Sanoat tovarlari	4,0	129,0	4,4	1,1	66,6	9,6	2,9	198,0	3,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	31,9	192,8	35,2	0,9	71,5	8,5	31,0	2,0 m.	38,9
Turli xil tayyor buyumlar	11,5	2,1 m.	12,7	0,6	188,0	5,8	10,9	2,2 m.	13,7



**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI
(2021- yil yanvar-mart, ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami import	100,0	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,5	37,5	35,1
Ichimliklar va tamaki	-	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	8,2	13,2	5,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xhash materiallar	0,0	0,2	0,9
Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,4	3,0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	3,4	4,1	5,8
Sanoat tovarlari	5,2	5,2	4,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	52,5	27,8	35,2
Turli xil tayyor buyumlar	24,8	9,0	12,7



**XSTT BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart)**

Mahsulot nomi	Mln. AQSh dollarari	o‘zgarish sura’tlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,6	125,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	26,8	138,9
Sabzavotlar va mevalar	0,9	116,1
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,6	2,1 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	0,8	123,1
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	0,0	195,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
Probka va yog‘och-taxtalar	4,0	69,0
Metall rudalari va metall parchalari To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	-	-
Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	0,7	44,5
O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0,1	13,8 m.
Moy olinadigan urug‘lar va mevalar	-	-
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moyi va shunga o‘xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	0,7	6,4 m.
Ko‘mir, koks va briketlar	0,1	5,8 m.
Elektr toki	-	-
Hayvon va o‘simliklar moyi (yog‘lari), yog‘lar va mumlar		
O‘simlik moyi va yog‘lari	0,1	3,0
Hayvon va o‘simlik moyi va yog‘lari	-	-


Hayvonlar moyi va yog'lari

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	-	-
Tibbiyat va farmatsevtika mahsulotlari	0,4	3,1 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,2	78,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	2,0	2,4 m.
Efir moyi, rezinoidlar va attorlik moddalari	0,1	9,7 m.
Organik kimyo moddalari	0,6	3,8 m.
Sanoat tovarlari	-	-
Cho'yan va po'lat	1,3	139,4
Metalldan tayyorlangan buyumlar	0,4	102,8
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	0,2	38,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,8	31,2 m.
Qog'oz	0,9	8,5 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	-	-
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	20,1	174,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	4,7	2,1 m.
Avtomobilarning ehtiyyot qismlari	2,1	2,1 m.
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarini tashish uchun mo'ljallangan avtoulovlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalarini	0,1	62,5
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning ehtiyyot qismlari	0,9	70,8
Turli xil tayyor buyumlar	-	-

Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1,0	2,8 m.
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	10,3	2,1 m.
Har xil tayyor buyumlar	0,1	3,5 m.
Mebel va uning qismlari, yotar-joy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,0	9,0 m.
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	0,0	3,9 m.



**MDH VA BOSHQA XORIJY DAVLATLARDAN
TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-mart. mln. AQSh dollarri. ulushi % da)**



2020- yil bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori yettilikda o'zgarish kuzatilmadi.

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha Xorazm viloyati tomonidan 38 davlat bilan tovarlar importi amalga oshirildi.




**XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA
AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI
(yanvar-mart)**

Davlatlar	Mln. AQSh dollarari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	13,2	30,2	58,9	2,3 m.	2	1
Braziliya	6,4	26,8	-	4,2 m.	3	2
Koreya Respublikasi	0,9	7,3	22,1	8,5 m.	6	3
Rossiya Federatsiyasi	23,0	6,9	2,2 m.	29,8	1	4
Turkiya	5,1	6,3	91,0	125,1	4	5
Germaniya	1,0	2,6	102,0	2,5 m.	5	6
Fransiya	0,1	1,8	38,6	24,3 m.	7	7



**XORAZM VILOYATINING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR
DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-mart)**



**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi**
Tel.: (62) 224-65-09